

07.00.00 – TARIX FANLARI

BUXORO VA JUNG‘OR XONLIKLARI O‘RTASIDA SIYOSIY MUNOSABATLAR TARIXI

Ko‘charov Jamshid Qulnazarovich,

Qarshi davlat universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.001>

Annotatsiya. Buxoro xonligi XVIII asrning boshlarida inqirozga yuz tutgan bo‘lib, Abulfayzxon (1711-1747 yy) hukumronligi davrida yirik feodal qo‘lida qo‘g‘irchoq hukumdorga aylanganligiga oid ma‘lumotlar tarixiy dabiyyotlarda ko‘plab keltirilgan. Buxoro xonligining kuchsizlanishi natijasida XVIII asr boshlarida Qo‘qon xonligining ajralib chiqib, mustaqil siyosat yurita boshlagan bo‘lsa, ikkinchi bir tomondan Markaziy Osiyoda qudratli davlat hisoblangan Jung‘or xonligining Buxoro xonligiga tez-tez hujumlari ham qayd etila boshlangan. Shuningdek, jung‘orlar tomonidan mag‘lub etilgan va o‘z yerlaridan quvilgan qozoqlarning ham Buxoro xonligi hududlariga kelishi va feodal urushlarda (1727-1730 yy) qatnashishi xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini og‘irlashishiga sabab bo‘lgan. Samarqand shahrida ark qal‘asidagina aholi yashagan bo‘lsa, Buxoroda ikkita guzarda aholi yashaganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o‘tilgan. Mazkur maqolada, Jung‘or xonligining Buxoroga bosqinlari, Buxoroda sulola almashinishi davridagi o‘zaro munosabat, Nodirshoh istilosi va Jung‘or xonligining ushbu holatga munosabati, Jung‘or xonligi Xitoy Sin imperiyasi tomonidan istilo qilingandan so‘ng Buxoroga qochib kelgan jung‘orlarning tarixiy taqdiri kabilar tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlar asosida atroflicha yoritib o‘tishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Jung‘or, ittifoq, bosqin, o‘zaro kurashlar, istilo, elchi, soliq, kelishuv, hokimiyat, sulola

ИСТОРИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ БУХАРСКИМ И ДЖУНГОРСКИМ ХАНСТВАМИ

Кучаров Джамшид Кулназарович,

Каршинский государственный университет, доцент кафедры «История

Узбекистана», к.и.н. (Кандидат наук)

Аннотация. Бухарское ханство столкнулось с кризисом в начале XVIII века, и существует множество исторических свидетельств того, что в период правления Абулфайз-хана (1711-1747) он стал марионеточным правителем в руках крупного феодала. В результате ослабления Бухарского ханства в начале XVIII века откололось Кокандское ханство и стало проводить самостоятельную политику. Также приход на территорию Бухарского ханства казахов, потерпевших поражение от джунгар и изгнанных со своих земель, и их участие в феодальных войнах (1727-1730 гг.) вызвали ухудшение социально-экономического положения ханства. В городе Самарканде население проживало только в арочной крепости, а в Бухаре в исторической литературе упоминается, что население проживало в двух гузарах. В данной статье рассматриваются нашествия Джунгарского ханства в Бухару, взаимоотношения во время смены династии в Бухаре, нашествие Надиршаха и реакция Джунгарского ханства на эту ситуацию, историческая история джунгар, бежавших в Бухару после Джунгарское ханство было завоевано Китайской Империей Сина. Была предпринята попытка выяснить судьбу подобных вещей на основе сведений, представленных в исторической литературе.

Ключевые слова: Война, союз, вторжение, конфликт, завоевание, посол, налог, соглашение, власть, династия.

THE HISTORY OF POLITICAL RELATIONS BETWEEN BUKHARA AND JUNGOR KHANATES

Kocharov Jamshid Qulnazarovich,

Karshi State University, associate professor of «History of Uzbekistan», Ph.D. (PhD)

Abstract. The Bukhara Khanate faced a crisis at the beginning of the 18th century, and there are many historical accounts of the fact that it became a puppet ruler in the hands of a large feudal lord during the reign of Abulfaiz Khan (1711-1747). As a result of the weakening of the Bukhara Khanate, in the beginning of the 18th century, the Kokand Khanate broke away and began to conduct an independent policy. Also, the arrival of the Kazakhs who were defeated by the Dzhungars and expelled from their lands to the territory of the Bukhara Khanate and their participation in the feudal wars (1727-1730) caused the deterioration of the socio-economic situation of the Khanate. In the city of Samarkand, the population lived only in the arch fortress, but in Bukhara, it was mentioned in the historical literature that the population lived in two guzars. In this article, the invasions of the Dzhungar Khanate in Bukhara, the relationship during the change of dynasty in Bukhara, the invasion of Nadirshah and the response of the Dzhungar Khanate to this situation, the historical history of the Dzhungars who fled to Bukhara after the Dzhungar Khanate was conquered by the Chinese Sin Empire an attempt was made to elaborate on the fate of such things based on the information presented in the historical literature.

Keywords: War, alliance, invasion, conflict, conquest, ambassador, tax, agreement, power, dynasty

Kirish. Jung'or xonligining shakllanishi Xitoydan mo'g'ullarning quvilishi (1368 y) bilan boshlangan bo'lib, qariyb uch asrga yaqin davom etgan. 1637 yilda tashkil topgan Jung'or xonligi Markaziy Osiyodagi qudratli davlat sifatida 1747 yilga qadar yashagan. Ushbu davrda dastlab Oyrat qabilalari, keyinchalik Jung'or xonligining Buxoro xonligi bilan munosabatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston tarixida kam o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqolada, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va etnik ta'sir masalalari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Tanlangan mavzuni mazmunan yoritishda manbaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlardan T.K. Beysembievning "Ta'rix-i Shaxruxi" kak istoricheskiy istochnik, V.V. Batrold qalamiga mansub "Общие работы по истории Средней Азии. Работы по истории Кавказа и Восточной Европы. Том II. часть 1" va "Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Том V" asarlaridan, qozoq ma'rifatparvari Ch.Ch. Valixonovning "Sobranie sochineniy v pyati tomax. Том II.", Sh.Vohidovning "XIX – XX asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi" asarlaridan keng foydalandik. Shuningdek, Qozoq-Jung'or munosabatlariga oid V.A. Moiseev, Buxoro xonligining qozoqlar bilan munosabatini yoritgan J.M. Tulibaeva, Mo'g'ulistonning O'rta Osiyo bilan munosabatlarini yoritgan Sh.M. Chimitdorjiev asarlaridan imkon qadar foydalanishga harakat qildik.

Natijalar va munozaralar. XVII asr boshlarida Markaziy Osiyodagi alqaro munosabatlarda katta ta'sir ko'rsatgan Oyrat qabilalarining yagona davlat bo'lib birlashish jarayoni sodir bo'lgan. Oyratlar ittifoqi yagona davlat bo'lib birlashmasidan oldinroq ham Movarounnahrda xonliklar siyosiy hayotida katta ta'sir ko'rsata boshlaganlar. Tarixiy adabiyotlarda oyratlarning Movarounnahrda hujumlari ashtarxoniy Boqi Muhammadxon (1599-1605 yy) hukumronligi davrida sodir bo'lib, qalmoqlar (oyratlar)ning 1604 yilda Xorazmga talonchiligi sodir etganligi tilga olingan[7. 18]. Bu esa, oyratlar hali qabila ittifoqi bo'lgan davrlardayoq o'lja olish maqsadida Movarounnahr hududlariga bosqinchilik ishlarini amalga oshirganliklarini ko'rsatib beradi.

Tarixiy adabiyotlarda 1640 yil Jung'or xonligi tashkil topgan sana sifatida tilga olingan. Buxoro xonligiga navbatdagi bostirib kirish sanasi sifatida esa, 1706 yil tilga olingan bo'lib, shu yili Ubaydullaxon (1702-1711 yy)ning Balxga isyonchi amirlarga qarshi harbiy yurishga otlangan vaqtda qalmoq (jung'or)larga qarshi kurashish uchun Samarqandga yo'l olganligibilan bog'liq ma'lumotlarni uchratish mumkin[10. 43]. Bundan tashqari 1709 yilda Ubaydullaxon

yana qalmoqlarga qarshi turish maqsadida Samarqandga kelganligi tarixiy adabiyotlarda keltirilgan[10. 84]. Bu esa Markaziy Osiyoda yangi qudratli Jung'or xonligining vujudga kelganligini va o'sha davrda qudratli deb hisoblangan Buxoro xonligi bilan munosabatalari ziddiyatli tus olganligini ko'rsatadi.

Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida qalmoqlar ta'siri oshganligini Ubaydullaxondan keyingi xon Abulfayzxon (1711-1747 yy) davrida sodir bo'lgan deb xulosa qilishga barcha asoslar yetarli. Abulfayzxon o'z xavfsizligini 350 qalmoq va 150 xonazot (ruslar)dan iborat qo'riqchilarga ishonganligiga oid ma'lumotlar yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni tasdiqlaydi[8. 125]. Buxoro xonligiga Rossiya imperatori Pyotr I (1672-1682-1725 yy) ning elchisi sifatida kelgan Florio Benevini (1721-1725 yy) Buxoro xonligida qalmoqlar ta'siri katta ekanligini, xonning shaxsiy qo'riqchilari 350 tasi qalmoqlardan, 150 tasi xonazot (qul qilingan rus asirlari)dan ekanligini yozib qoldirgan[11. 25]. Abulfayzxon hukumronligi davrida Buxoroda qalmoqlar ta'sirining katta bo'lganligini Javshan qalmoq misolida ham ko'rish mumkin bo'lib, u Buxoro xonligi qushbegisi bo'lib ma'lum bir muddat davlat ishlari uning qo'lida to'planganligi qator tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan[1. 94; 9. 18]. Bundan tashqari 1723 yilda Florio Benevini Buxoroda bo'lganida Jung'or xoni Sevan-Rabdan elchisi Buxoroga kelib, Samarqanddan Abulfayzxon soliq olmasligi, Jung'or xoni qo'shin bilan kelishi va tartib o'rnatishi, Buxoro xoni uning yo'lidan chiqsa, Buxoroni ishg'ol qilishini ma'lum qilganligini yozib qoldirgan[8. 96]. Ushbu ma'lumot ham Jung'or xonligining Buxoro xonligi ustidan siyosiy ustunlikka ega ekanligini ko'rsatib beruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Buxoro xonligida XVIII asrning birinchi yarmida siyosiy parokandalik avj olgan bo'lib, hokimiyat uchun kurashlar deyarli to'xtovsiz olib borilgan. Siyosiy kurashlarning eng yirigi Kenagaslardan bo'lgan Ibrohim sulton va Abulfayzxon o'rtasida sodir bo'lib, Samarqandni egallab olgan Ibrohim sulton Abulfayzxonga qarshi kurashda Jung'orlardan yengilgan va Movarounnahrda tomon chekingan qozoq-qo'ng'iroq, qoraqalpoqlardan yordam so'ragan. Bu esa Movarounnahrni yetti yil davomida vayron etilishiga sabab bo'lgan. Talonchilar Qarshi, Shahrisabz, Hisor, Ko'lobgacha yetib borganlar[4. 7]. Qozoqlarning bu kurashlarga qo'shilishiga ularni XVIII asrning birinchi yarmidagi qalmoqlar tomonidan bir necha bora talanishi, tazyiqqa uchrashi bo'lib, qozoqlarning O'rta juz qabilalari Samarqand va Buxoro hududlari tomon siljiy boshlagan[10. 75]. Bu hududlarda o'z hududlariga ega bo'lish maqsadida esa ular siyosiy kurashlarga jalb qilingan deb xulosa qilish mumkin. Jung'orlar bosqini davrida qozoqlarning katta juzlari ilgari o'zlari yashagan Balxash ko'li bo'ylaridan Buxoro xonligi atroflariga ko'chib kelishi ularni ham siyosiy kurashlarga tortilishiga sabab bo'lgan[5. 156]. Bundan tinch aholi aziyat chekkan.

Toshkent, Sayram, Turkiston kabi Sirdaryobo'yi shaharlari Jung'or xonligi va qozoqlar o'rtasidagi doimiy ziddiyatli hududga aylangan bo'lib, 1742 yilda jung'orlarning navbatdagi hujumi vaqtida Toshkentda yana hukumronliklarini o'rnatganlar. Ammo, jung'orlar sarkadasi Saray Manji tomonidan Samarqandni egallashga bo'lgan urinish muvofaqiyatsizlikka uchragan. Badaxshon va Xo'jand viloyatlarini egallashga bo'lgan urinish ham barbod bo'lgan[11. 44]. Shunday bo'lsada, bosqinchilar katta o'ljalar bilan ortga qaytganlar.

XVIII asrning o'rtalarida siyosiy jihatdan parokanda bo'lgan Eron Nodirshoh Afshor (1736-1747 yy) hukumronligi davrida markaziy hokimiyat kuchayib, Eron qo'shni davlatlarga ham hujumlar uyushtira boshlagan. Nodirshoh va Jung'or xonligini oltinchi xuntayjisi Sevan-Dorji (1732-1749 yy) o'rtasida o'ziga xos kelishuv bo'lgan va ikki o'rtadagi davlatlarni bo'lib olish rejasi vujudga kelgan degan xulosaga kelishga asos bo'luvchi ma'lumotlar mavjud. Chunki, 1746 yilda Jung'or xoni Sevan-Dorji Eron shohi Nodirshohga elchilar yuborib, qarindoshchilik aloqalarini yo'lga qo'yishga harakat qilgan. Singlisini Nodirshohga turmushga bergan va Nodirshoh elchilarga qalin puli sifatida 10 ming rubl miqdorda kumush pul bergan[7. 186]. Bu esa, yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni asoslashga xizmat qiladi.

V.V. Bartold ma'lumotlarida, Jung'or xonligi kuchaygan davrlarda Buxoro xonligi ham bu davlatga qaram hisoblangan[3. 190]. Ammo, bu qaramlik qaysi xronologik chegarada bo'lganligini ko'rsatib o'tmagan. Bizning fikrimizcha, Buxoro xonligining Jung'or xonligiga qaramligi Ashtarxoniylar sulolasining qulash arafasida ayniqsa kuchayib borgan. Ushbu fikrlarni

asoslaydigan ma'lumotlar V.A. Moiseev tadqiqodlarida keltirilgan. Uning yozishicha, 1748 yilda Ashtarxoniy Abdulmo'min o'ldirilgani haqida Jung'or xonligi poytaxti Urguga kelgan elchilar shikoyat qilganlar. Muhammad Raximbiy hokimiyatni qo'lga kiritgandan keyin ham ashtarxoniyalar tarafdorlari bir necha bora taxtni qaytarib olishga yordam berishni so'rab elchi yuborganlar[8. 198]. Bundan tashqari Buxoroda Muhammad Raximbiy mang'itlar sulolasini o'rnatish jarayonida qalmoqlar qo'l ostida bo'lgan Toshkentga Nurota va Sagarji beklari undan norozi bo'lib, qalmoqlarga shikoyat qilib kelganligi va Jung'or xonligidan Buxoroga taftish uchun elchilar kelgani, oxir-oqibatda Buxoro va Jung'or xonliklari o'rtasida kelishuvga erishilganligi V.V. Bartold tadqiqodlarida keltirib o'tilgan[2. 277]. Bu Jung'or xonligining Toshkentdagi noibi Buxoro xoni hatti-harakatlarini nazoratga olgan degan xulosani keltirib chiqaradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotdan tashqari Muhammad Vafo Karmanagiyning "Tuhfat al-xoniy" asariga tayanib, V.V. Bartold 1749 yilda yangi mang'itlar sulolasi o'rnatilish jarayonida Muhammad Raximbiy va uning raqiblarining siyosiy ziddiyatlarini hal qilish uchun Buxoroga Jung'or elchisi hakamlik qilish uchun kelgan va uning qarorini tinglashga, uni bajarishga majbur bo'lganlar[3. 539]. Bu tarixiy jarayon ham Buxoro xonligi tugatilish jarayonida Jung'or xonligiga qaram bo'lganligini tasdiqlaydi.

Jung'or xonligining qulash jarayonlari XVIII asr o'rtalarida sodir bo'lib, xonlik inqirozga yuz tuta boshlagan XVIII asrning 40-yillari ikkinchi yarmida taxtga da'vogarlarning o'zaro kurashlari avjga chiqqan. Onasi kanizak bo'lgan Sevan-Dorji hukumronligiga qarshi kurash boshlagan Davatsini qo'llab-quvvatlashga moyil bo'lgan sarkardalarni ukasi Yemanxuluni 15 ming qo'shin bilan Buxoroga hujum qilishga yuborgan[8. 181]. Jung'or xonligining Qo'qon xonligi bilan munosabatlari alohida tadqiqod mavzusi bo'lib, 1750 yilda Qo'qon xoni Abduraximbiy vafot etgan. Taxtga o'tirgan kichik o'g'li Abduraxmon o'tirgan. To'qqiz oy hukumronligidan keyin uni mahalliy feodallar fitnasi sababli taxtdan tushirilib Marg'ilonga hokim qilib yuborilgan. Abduraximbiyning akasi Abduraxmonning ikkinchi o'g'li Irdona Qo'qon xonligining navbatdagi xoni qilib ko'tarilgan[6. 16]. Irdonaning akasi Jung'orlarga garov sifatida berib yuborilgan Bobobek Lama-Dorjiga o'zini Qo'qonga xon qilib qo'yish evaziga butun Buxoroni istilo qilishi va Jung'or davlati vassalli bo'lishni va'da qilgan. 1750 yilning kuzida Lama-Dorji qo'zg'olon ko'targan Toshkentga qarshi qo'shin yuborgan va shu bahonada Bobobekni Qo'qon taxtiga o'tqazgan. Ammo, Bobobek 1753 yilda O'ratepaga yurish vaqtida vafot etadi va taxt yana Irdonabek qo'lga o'tgan[8. 209]. Bobobekning Buxoroni istilo qilish rejasi amalga oshmagan.

Jung'or taxtiga da'vogar Davatsi qozoqlar yordamida hokimiyatni qo'lga olishga harakat qilgan bo'lib, 1753-1754 yilning qishida qozoqlarning jung'orlardan avvallari o'zlari yashagan hududlarni qaytarib olish jarayoni sodir bo'lib o'tgan. Shuningdek, qirg'izlarning ham Issiqko'l atroflarini jung'orlardan qayta tortib olish uchun kurashlari boshlangan. Qo'qon xonligi ham Jung'or xonligi parchalanishidan foydalanib qolishga harakat qilgan bo'lsa, Buxoro amiri Raximbiy Toshkent va Qoshg'ar xo'jalari orqali Jung'orlar bilan yaqin munosabatlar olib borishga harakat qilgan. Bu bilan u o'zining chegaralarini jung'orlar talonchiligidan asrashga harakat qilganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan[1. 117]. Chunki, Buxoroda xonlik tugatilib, yangi mang'itlar amirligi tashkil topgan vaqtida har bir urug'ning oliy hokimiyatni egallash uchun kurashlari kuchaygan bo'lsa, mang'itlarning xon urug'idan bo'lmaganligi, tashqi hujumlarni ham kuchaytirib yuborgan. Buxoroda mang'itlarga qarshi kurashlarga Xo'jand, Toshkent, Qo'qon, Qoshg'ar Afg'on hukumdorlari tortilgan bo'lib, Raximbiy Jung'orlar bilan ittifoq tuzish orqali ularni hujumlarini oldini olishga harakat qilgan[1. 117]. Raximbiy qiyinchilik bilan hokimiyatni saqlab qola olgan.

Xulosa qilib aytganda, Jung'or xonligi Markaziy Osiyo hududida bir yarim asrga yaqin yirik siyosiy mavqega ega bo'lgan davlat bo'lib, Buxoro xonligi bilan siyosiy, iqtisodiy munosabatlar olib borgan. Ma'lum bir muddat Buxoro xonligi Jung'or xonligiga vassal darajasida ham bo'lgan. Jung'or xonligi tugatilish jarayonida ikki davlatning ittifoqi ham yuzaga kelgan bo'lib, Jung'or xonligi 1758 yilda rasman tugatilgan bo'lsa, Buxoro amirligida ma'lum bir qism, hududlar yo'qotish evaziga bo'lsada, mang'itlar sulolasi o'z mavqeini saqlab qola olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. XVI-XVIII вв. (письменные памятники) – Т.: Фан, 1985. - 264 с.
2. Батрольд В.В. Сочинения. Общие работы по истории Средней Азии. Работы по истории Кавказа и Восточной Европы. Том II. часть 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – 1020 с.
3. Батрольд В.В. Сочинения. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Том V. – М.: Наука, 1968. - 757 с.
4. Бейсембиев Т. К. «Та’рих-и Шахрухи» как исторический источник. - Алма-Ата: Наука, 1987. - 200 с.
5. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том II. – Алма-Ата: Главная редакция Казахской советской энциклопедии, 1985. – 416 с.
6. Воҳидов Ш. XIX-XXаср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. (генезиси, функциялари, намояндалари, асарлари). – Т.: Akademnashr, 2010. – 369 б.
7. Моисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (XVII-XVIII вв.). – Алма-Ата: Гылым, 1991. - 238 с.
8. Посланник Петра I на Востоке. Посольство Флорио Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. - М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1986. - 159 с.
9. Саидов А. Политическое и социальноэкономическое положение Бухарского ханства в XVII - первой половине XVIII вв. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Душанбе-2007. – 49 с.
10. Тулибаева Ж.М. Казахстан и Бухарское ханство в XVIII – первой половине XIX в. – Алматы: Издательство «Дайк-Пресс», 2001. – 156 с.
11. Чимитдоржиев Ш.М. Взаимоотношения Монголии и Средней Азии в XVII-XVIII вв. – М.: Наука, 1979. – 84 с.
12. Orziyev M. On the aspects of zahiriddin muhammad babur’s political activity related to bukhara. Центр научных публикаций (buxdu. uz)
13. Orziyev M. Амир темур сиёсий фаолияти ва бухоро уламолари Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
14. Orziyev M. On the role of bukhara in the development of science and culture during the reign of amir temur and the temurids Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)